

## Otaga hurmat



11:00 / 05.02.2019 9473

Aziz bolajonlar! Siz, albatta, bobo-buvilaringizni, ota-onangizni, aka-opalaringizni, umuman, yoshi kattalarni hurmat qilish zarur ekanini bilasiz. Bu ishingiz tahsinga loyiq. Bu bilimigingizga amal qilish esa ko'plab savob keltiradi.

Musulmonlar o'z ota-onalariga hurmat ko'rsatish borasida hammaga ibratdir. Ota-onani e'zozlashni bizga sahobalar ham juda chiroyli tarzda o'rgatganlar.

Hishom ibn Urva otasidan rivoyat qiladi:

«Abu Hurayra ikki kishini ko'rib qolib, ulardan biriga:

«Bu kiming bo'ladi?» dedi.

«Otam bo'ladi», dedi u.

«Unday bo'lsa, uni ismini aytib chaqirma, oldiga tushib yurma va undan oldin o'tirma», dedi».

Demak, ota-onaning hurmati ushbu hadisi sharifda zikr qilingan narsalarda ham koʻrinar ekan. Farzand otasiga «Ota», deb yoki boshqa bir ehtirom maʼnosidagi soʻzlarni aytib murojaat qilishi yaxshi ekan. Lekin boshqalarning ismini aytgandek, otasining ismini aytib chaqirish musulmonchilik odobiga toʻgʻri kelmaydi.

Shuningdek, yoʻlda yurganda ham otadan keyin yurish kerak, oldinga oʻtish mumkin emas. Oʻtirishda ham avval ota, keyin esa bola oʻtirishi lozim.

Qadrli bolajonlar, katta yoshdagi va olim kishilar paytini topib, yoshlarga taʼlim berishlari, odobli boʻlishga chorlab turishlari kerakligini koʻryapsizmi? Sizga ham biror ish ustida kattalar saboq yoki tanbeh berishsa, ularni aslo ogʻir olmang. Hammasi oʻzingizning foydangiz uchun.

Musulmonchilik odobi boʻyicha, farzand ota-onasining ismini aytib chaqirishi toʻgʻri emasligini ham bilib oldik. Oʻylaymizki, orangizda bunday bolalar yoʻq.

Yana bilishimiz kerakki, musulmonchilik odobi boʻyicha, farzand ota-onasining oldiga tushib yurishi toʻgʻri emas. Musulmonchilik odobi boʻyicha, farzand ota-onasidan oldin oʻtirishi toʻgʻri emas.

***«Odoblar xazinasi» kitobi asosida tayyorlandi***